1. Qang’ davlatidan ajralib chiqqan davrda Xorazm davlatining poytaxti dastlab qayer bo’lgan?
☑ Tuproqqal'a
2. Qang’ davlatidan ajralib chiqqan davrda Xorazm davlatini qaysi sulola vakillari boshqara boshlaydilar?
☑ afrig’iylar
3. Xorazmshoh Afrig' qachon o'z davlatining poytaxtini Kat shahriga ko'chiradi?
☑ 305 yilda
4. Xorazmshoh Afrig' zarb qilgan tanganing bir tarafiga shoh orqasiga....tasviri tushirilgan edi.
☑ suvoriy
5. Abu Rayxon Beruniyning yozishicha xorazmshoh unvonini dastlab qaysi sulola qabul qilganlar?
☑ siyovushlar
6. Beruniyning ma'lumotiga ko'ra xorazmshoh unvonini kim birinchi bo'lib olgan?
☑ Kayxusrav -
7. Ma'lumotlarga ko'ra Xorazmni quyidagi qaysi sulolalar boshqargan?
☑ hammasi
8. Ma'lumotlarga ko'ra Xorazmni ma'muniylardan keyin qaysi sulola boshqargan?
☑ oltintoshlar
9. Qo'lida burgut ushlagan hukmdor haykali qaysi manzilgohdan topilgan?
☑ Tuproqqal’a
10. Qo’lida shohbozlochin tutgan hukmdor tasviri ifodalangan tangalar qayerdan topilgan?
☑ Anqaqal’a
11. Xorazmning VI asrning 60-yillarida Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borganligi haqida yozib qoldirgan tarixchini aniqlang?
☑ Menandr

Shuhratbek.uz

12. Ilk o'rta asrlarda Xorazmshohlarning hukmdorlik ramzi nima bo'lgan?
☑ burgut va lochin
13. Xioniylar O'rta Osiyoga qachondan kirib kela boshlaganlar?
☑ IV asr o'rtalaridan
14. Qachon xioniylar So'g'dga bostirib kiradilar?
☑ 353 yilda
15. Xioniylar O'rta Osiyoga qayerdan kirib kelganlar?
☑ Sharqiy Turkiston va Yettisuvdan
16. Quyidagi shaxslardan xioniylar hukmdorini aniqlang.
☑ Grumbat
17. Xioniylar sosoniylarning qaysi hukmdori bilan jang olib borganlar?
☑ Shopur II
18. Xioniylar O'rta Osiyoda qachondan boshlab uzil-kesil hukmronlik o'rnatganlar?
☑ IV asrning 70- yillaridan
19. Quyidagi davlatlardan qaysi biri 120 yil hukmronlik qilgan?
☑ xioniylar
20. Kidariylar qachondan boshlab O'rta Osiyoga kirib bostirib kirdilar?
☑ V asrning 20- yillaridan
21. Toxarlar O'rta Osiyoga qaysi hudud orqali kirib keldilar?
☑ Sirdaryo va Orol bo'ylaridan
22. Toxarlar kimlarning avlodlari edilar?
☑ kushonlar
23. Kidariylar davlatining poytaxtini aniqlang.
☑ Balx
24. V asrning 30-50 yillarida bir-biri bilan ayovsiz urush olib borgan davlatlarni aniqlang.
☑ kidariylar va sosoniylar
25. 456 yilda….
☑ A va B
26. Eftaliylardan zarbaga uchragan kidariylar Shimoliy Hindistonda yana necha yil davomida hukmronlik qilganlar?
☑ 75 yil
27. Qadimda eftallarning ilk ajdodlari yashagan Xitoyning shimoliy-g'arbiy hududi qanday nomlangan?
☑ Xesi
28. Eftaliylar yurtimizga qachon kirib kelganlar?
☑ V asrning o'rtalaridan
29. "Eftal" degan nom xeptal shaklida qanday manbalarda uchraydi?
☑ arman
30. Eftaliylarning O'rta Osiyoga yurishlariga qaysi shoh boshchilik qilgan?
☑ Vaxshunvor
31. Eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi urushlar qaysi sosoniy podshosi davrida avjiga chiqadi?
☑ Pero'z
32. Qaysi vizantiya imperatori bergan o'lpon evaziga sosoniylar shohi Peroz qutqarib qolinadi?
☑ Zenon
33. Perozning eftaliylarga III mag'lubiyati oqibatlarini aniqlang.
☑ A va B
34. Sosoniylarning eftaliylarga beradigan boj-yasoqlari nima miqdorida belgilangan edi?
☑ kumush
35. Eftaliylar bilan nisbatan tinchlik munosabatlarini olib borgan sosoniy hukmdorlarini aniqlang.
☑ A va C
36. Sosoniylar podshohi Kubod hukmronlik qilgan sanalarni aniqlang.
☑ milodiy 488-531 yillar

Shuhratbek.uz

## 003-Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (19)

### Savollar va javobi

1. V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoda go'za ekilganligini qaysi manbalardan bilib olishimiz mumkin?
☑ xitoy manbalaridan
2. Quyidagi shaxslardan eftaliy hukmdorini aniqlang.
☑ Mihirakula
3. Eftaliylar hukmronligi davrida qayer o'zining zotli arg'umoqlari bilan mashhur edi?
☑ Farg'ona
4. Eftaliylar davrida yaylovlarning asosiy qismi kimlarning qo'lida bo'gan?
☑ qabila va urug' jamoalari va ularning oqsoqollari xvabular
5. Samarqand viloyatining janubiy tumanlarini suv bilan ta'minlaydigan V asrda barpo etilgan kanalni aniqlang.
☑ Darg'om
6. Ilk o'rta asrlarda hozirgi Qozog'istonning janubi va Toshkent viloyatini suv bilan ta'minlaydigan kanalni aniqlang.
☑ Zog'ariq va Bo'suv
7. Ilk o’rta asrlarda Chag’aniyon deyilganda hozirgi qaysi hudud nazarda tutilgan?
☑ Surxondaryo
8. Eftaliylar hukmronligi davrida sosoniy savdogarlari bilan kimlar raqobat qilardilar?
☑ sug’diylar
9. Eftaliylar ichki va tashqi savdoda dastlab kimlarning tangalaridan foydalanganlar?
☑ sosoniylar
10. Kofirqal’adan topilgan sopol ko’za qaysi davrga tegishli hisoblanadi?
☑ VII- VIII asrlar
11. V asr o'rtalarida eftaliylar Xitoydagi qaysi davlat hududining bir qismini bosib oldilar?
☑ Bey-Vey
12. Ilk o’rta asrlarda maxsus ko’tarma qiya yo'l nima deb nomlangan?
☑ pandus
13. Eftaliylar hukmronligi davrida chorvador aholi o’rtasida qaysi til ommalashgan edi?
☑ turkiy
14. V-VI asrlarda xalqaro savdo tili bo’lgan tilni aniqlang.
☑ sug’diy
15. V-VI asrlarda O’rta Osiyoda tarqalgan yozuvlar qatoriga quyidagilardan qay biri kirmaydi?
☑ turkiy yozuvi
16. Eftaliylar xati qaysi yozuv asosida paydo bo’lgan edi?
☑ baqtriya
17. Eftaliylar xati necha harfdan iborat edi?
☑ 25 ta
18. O’rta Osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlaridan shisha tayyorlash sirini o’rgatgan davrni aniqlang.
☑ V asrda
19. Eftaliylar e'tiqodi qanday bo'lgan?
☑ o'tga va quyoshga sig'inadigan otashparast bo'lganlar

Shuhratbek.uz

## 004-O’rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida (30)

### Savollar va javobi

1. Turk xoqonligi qaysi hududda tashkil topdi?
☑ Oltoy va Janubiy Sibir
2. Turk xoqonligining asoschisi kim hisoblanadi?
☑ Bumin
3. Turk xoqonligining markazi qayer bo'lgan?
☑ Oltoy
4. Turk xoqonligini g’arbga yurishlariga boshchilik qilib “yabg’u xoqon” unvonini olgan shaxsni aniqlang.
☑ Istami
5. Bumin Turk xoqonligining hukmdori deb e’lon qilingan sanani aniqlang.
☑ 552 yilda
6. Turk xoqonligiga nisbatan oldinroq qo’shib olingan hududni aniqlang.
☑ Sharqiy Turkiston va Yettisuv
7. Qadimgi turkiylar tomonidan Yoyiq deb atalgan daryoni aniqlang.
☑ Ural daryosi
8. Qadimgi turkiylar tomonidan Itil deb atalgan daryoni aniqlang.
☑ Volga daryosi
9. Turklar qachon Shimoliy Kavkazni egallab, Qrim yarim oroliga kirib boradilar?
☑ 575-576 yillarda
10. Turklar eftaliylarga qarshi kurashish uchun dastlab kimlar bilan ittifoq tuzadilar?
☑ sosoniylar
11. Turklar bilan ittifoqlik shartnomasini imzolagan va hattoki xoqonga kuyov bo’lgan sosoniy hukmdorini aniqlang.
☑ Xusrav Anushervon
12. Turkiy balbal bu-....
☑ turklarda mozor tosh haykali
13. Turklar Eftaliylar davlati yerlariga bostirib kirgan sanani aniqlang.
☑ 563-yilda
14. Ilk o’rta asrlarda Parak vodiysi bu…
☑ Chirchiq vodiysi
15. Eftaliylar va turklar bilan bo’lgan asosiy jang qaysi shahar yaqinida bo’lib o’tadi?
☑ Buxoro
16. Turk xoqonligi va Eron ittifoqi kimning tashabbusi bilan yuzaga keladi?
☑ Xusrav Anushervon
17. Turklarda bir tuman jangchining boshlig’i nima deb atalgan?
☑ shod
18. Eftaliylar davlati tor-mor qilinganidan keyin sosoniylar va turklar o’rtasi chegara etib qaysi hudud belgilandi?
☑ Amudaryo
19. Turk xoqonligining asosi nimadan iborat bo’lgan?
☑ qabilalar ittifoqi
20. Turk xoqonligidagi oddiy ko’chmanchilar nima deb atalgan?
☑ ikkita javob to'g'ri
21. Turk xoqonligida o’n o’q elning boshlig’i nima deb atalgan?
☑ yabg’u
22. Turk xoqonligi davrida ko’chmanchi aholidan tuzilgan bir tuman lashkarning boshlig’i nima deb atalgan?
☑ shod

Shuhratbek.uz

23. O’rta Osiyoda Turk xoqonligi boshqaruvi davri haqida berilgan fikrlardan qay biri noto’g’ri?
☑ turklar yerlik aholining ko’chmanchi turmush tarziga o’tkazishga harakat qilganlar
24. Turk xoqonligi ikkita qismga bo’linib ketgan davrni aniqlang.
☑ VI asrning 80-yillari
25. Sharqiy Turk xoqonligiga quyidagi hududlardan qay biri kirmagan?
☑ Yettisuv
26. Sharqiy Turk xoqonligining markazi qayer bo'lgan?
☑ O'tukan vodiysi
27. G'arbiy Turk xoqonligiga qaysi hududlar kirgan?
☑ hamma javob to'g'ri
28. Quyidagi davlatlaning qay birida davlatni ixshidlar boshqarishgan?
☑ ikkita javob to'g'ri
29. Choch viloyatining hukmdorlari qanday nomlanganini aniqlang?
☑ tudunlar
30. Quyidagi davlatlardan qay birini yabg'ular boshqargan?
☑ Toxaristonda

## 005-G’arbiy Turk xoqonligi (19)

### Savollar va javobi

1. G’arbiy Turk xoqonligining markazini aniqlang.
☑ Yettisuv
2. Sharqiy Turk xoqonligi aholisining asosiy qismini kimlardan iborat edi?
☑ ko'chmanchi chorvadorlar
3. G’arbiy Turk xoqonligining aholisi asosan nima bilan shug’ullangan?
☑ dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik
4. G’arbiy Turk xoqonligi nihoyatda kuchaygan davrini aniqlang.
☑ VII asrning birinchi choragi
5. VII asrning boshlarida G’arbiy Turk xoqonligining janubiy chegarasi qayerga borib taqalardi?
☑ Sind daryosiga
6. VII asrning boshlarida G’arbiy Turk xoqonligining sharqiy chegarasi qayerga borib taqalardi?
☑ Oltoyga
7. VII asr boshlarida G’arbiy Turk xoqonligida boshqaruv islohoti o’tkazgan xoqonni aniqlang.
☑ To'ng yabg’u
8. Xoqon To'ng yabg’u mahalliy hukmdor va hokimlarga qanday unvon bergan edi?
☑ yabg’u
9. Xoqon To'ng yabg'u hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 618-630 yillar
10. VII asr boshlarida G’arbiy Turk xoqonligida o’tkazilgan islohotlarga ko’ra mahalliy hukmdorlar huzuriga yuborilgan shaxslarni aniqlang.
☑ tudun
11. Sarrojlik bu-...
☑ egar-jabduq yasash
12. Turk xoqonligi davrida qaysi hududlardan kumush, qo’rg’oshin va oltin qazib olingan?
☑ Eloq
13. VII asrning birinchi yarmida G'arbiy Turk xoqonligi bilan qaysi davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalar faollashgan edi?
☑ Xitoy
14. VII asr boshlarida G’arbiy Turk xoqonligi Xitoyga necha marta savdo elchiligi jo’natgan edi?
☑ 9 marta
15. Qachon Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushonadan birlashgan juda katta karvon Xitoyga

Shuhratbek.uz

yetib borgan edi?
☑ 627 yilda
16. O'rta Osiyoning qaysi hududiga 585-586 yillar xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tgan edi?
☑ Buxoroda
17. Abruy kelib chiqishiga ko'ra qanday ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lgan?
☑ xoqon xonadoniga mansub bo'lgan
18. Abruy qo'zg'olonidan vahimaga tushgan Buxoroning mulkdor dehqon va savdogarlari qayerga borib o'rnashganlar?
☑ Turkiston va Taroz
19. Abruy qo'zg'olonini bostirgan shaxsni aniqlang.
☑ Sheri Kishvar

## 006-Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi (34)

### Savollar va javobi

1. V-VII asrlarda O'rta Osiyoda qancha mahalliy mustaqil hokimliklar mavjud edi?
☑ 15 tadan ortiq
2. Najjorlik nima?
☑ duradgorlik
3. So'g'dagi qaysi shaharda ajdodlar ruhi xotirasi ibodatxonasi barpo etilgan edi?
☑ Samarqand
4. Sug'diylar bog'dorchilikning qaysi sohasida ayniqsa omilkor bo'lganlar?
☑ uzumchilik
5. Mustaqil hokimliklardan bo'lgan Sug'd hokimligi nechta mustaqil mulklardan iborat edi?
☑ 11 ta
6. 718 yilda Sug'ddan Xitoyga olib borilgan qaysi narsa keyinchalik butun xitoy armiyasidan qo'llaniladigan bo'ldi?
☑ dubulg'a
7. Quyidagi qaysi O'rta Osiyo davlatida 27ta tog' va tog'oldi viloyatlar mavjud bo'lgan?
☑ Toxariston
8. Qadimdan Toxariston poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
☑ Balx
9. Ilk o'rta asrlarda Toxariston ahli qanday dinga e'tiqod etgan?
☑ buddaviylik
10. Toxaristonning alifbosi necha harfdan iborat bo'lgan?
☑ 25 ta
11. Toxariston aholisining asosiy qismi nima bilan shug'ullangan?
☑ dehqonchilik
12. Toxaristonda hunarmandchilikning qaysi sohasi ayniqsa juda rivoj topgan edi?
☑ qurolsozlik
13. Qadimda Toxariston davlatining chegaralari shimolda qayerdan o'tgan?
☑ Hisor to'glari
14. Qadimda Toxariston davlatining chegaralari janubda qayerdan o'tgan?
☑ Hindikush
15. Qadimda Toxariston davlatining chegaralari g'arbda qayerdan o'tgan?
☑ Murg'ob va Xerirud
16. Qadimda Toxariston davlatining chegaralari sharqda qayerdan o'tgan?
☑ Pomir
17. Mil.avv II asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila qanday nomlangan edi?
☑ yue-chjilar
18. Markaziy Osiyoda buddaviylik va moniylik dinlarini tarqalishida qaysi hudud asosiy rol

Shuhratbek.uz

o'ynagan?
☑ Toxariston
19. Ilk o’rta asrlarda Farg’ona hukmdorlari qanday nomlangan?
☑ ixshid
20. Koson, Axsikat va Quva ilk o’rta asrlarda qaysi mahalliy davlatning rivojlangan shaharlaridan bo’lgan?
☑ Farg’ona
21. Ilk o'rta asrlarda Farg’ona qo'shni davlatlarga nimalar chiqargan?
☑ bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmon
22. Qadimdan mashhur bo'lgan Farg’ona tulpor otlari qaysi hududlarda yetishtirilgan?
☑ Qurama va Qoramozor tog' yonbag'irlarida
23. Ilk o’rta asrlarda Iloqning markazini aniqlang.
☑ Tunkat
24. Ilk o'rta asrlarda Choch hukmdori qanday atalgan?
☑ tudun
25. Ilk o'rta asrlarda Eloq davlati boshlig'i qanday atalgan?
☑ dehqon
26. VII asrning dastlabki choragida G'arbiy Turk xoqonligi hukmdorlik qarorgohini qayerga ko'chiradi?
☑ Choch viloyati
27. Quyidagi qaysi davlatda ayollar (malika) vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan?
☑ Choch
28. Ilk o'rta asrlarda boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lgan?
☑ ikkita javob to'g'ri
29. Istehkomli turar joylarga misol keltiring.
☑ hamma javob to'g'ri
30. Ilk o’rta asrlarda shaharlar necha qismdan iborat bo’lgan?
☑ 3 ta
31. Ilk o’rta asrlarda shaharning tashqi mavzesi nima deb atalgan?
☑ rabod
32. Ilk o'rta asrlarda shaharning aholi yashaydigan asosiy qismi qanday nomlangan?
☑ shahriston
33. Ilk o'rta asrlarda shaharning qaysi qismi kuhandiz ham deb atalgan?
☑ ark
34. Arab tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra O'rta Osiyodagi qaysi shaharning jami 22 ta darvozasi bo'lgan?
☑ Binkat

## 007-VI-VII asrlarda madaniy hayot (17)

### Savollar va javobi

1. Baqtriya yozuvi asosida shakllangan yozuvni aniqlang.
☑ toxar
2. Sug’d va xorazm yozuvlari qadimgi qaysi yozuv asosida vujudga kelgan?
☑ oromiy
3. Ilk o'rta asrlarda xat, hujjat va ayrim axborotlar asosan nimalarga yozilgan?
☑ charm, yog'och va sopol
4. Qal’ayi Mug’, Turfan va Afrosiyobdan topilgan yozuvlar qaysi alifboda yozilgan?
☑ sug’d
5. Turfan shahri qayerda joylashgan edi?

Shuhratbek.uz

☑ Sharqiy Turkiston
6. Sug'dda o'g'il bolalar necha yoshga kirgandan keyin yozuv va hisobga o'rgatilar edi?
☑ 5 yosh
7. Sug’dda o'g'il bolalar necha yoshga yetgandan keyin karvonlarga qo'shilib, savdo ishlari bilan uzoq yurtlarga ketganlar?
☑ 20 yoshda
8. Turkiy runik yozuv nechta harfdan iborat bo'lgan?
☑ 38-40 ta harf
9. Ilk o’rta asrlarda aholining asosiy ko’pchiligi qaysi dinga e’tiqod qilgan?
☑ zardushtiylik
10. Samarqand viloyatining Urgut tumani qaysi dinning Orta Osiyodagi markazi hisoblangan?
☑ nestorianlik
11. Moniy dinining arkonlarini aniqlang.
☑ ibodat, ro’za va sadaqa berish
12. Turkiylarning qam e’tiqodiga ko’ra koinotni yoqlikdan bor qilgan xudo..
☑ Ko’k tangri
13. Turklarning qam e'tiqodiga ko'ra Ko'ktangriga nima qurbonlik qilingan?
☑ qora qashqa ot
14. Qo’rg’ontepa yaqinidagi Ajinatepadan topilgan budda xaykali balandligi qanchaga yetadi?
☑ 12 metr
15. Xitoy ayyonlari ilk o’rta asrlarda qaysi hududning raqsiga tan berishgan?
☑ Choch
16. O'zining qiziqchilari bilan mashhur bo'lgan hududni ayting.
☑ Buxoro
17. Ilk o’rta asrning ganchkorlik namunalarining nodir yodgorliklari qayerdan topib o’rganilgan?
☑ Varaxsha

## 008-Islom dini va arab xalifaligi (43)

### Savollar va javobi

1. Arabiston yarim orolida mamlakatni birlashtirish harakati qachondan boshlanadi?
☑ VII asrning boshlaridan
2. Muhammad binni Abdulloh (s.a.v) payg'ambarimiz yashab o'tgan yillarni aniqlang.
☑ 570-632-yillar
3. Muhammad (s.a.v.) Arabistonda yagona markazlashgan davlat tuzgan sanani aniqlang.
☑ 630-yil
4. 632-634-yillarda xalifalik qilgan shaxsni aniqlang.
☑ Abu Bakr
5. “Xalifa” so’zining ma’nosi nima?
☑ o’rinbosar
6. Arablar qaysi hududlarni ishg'ol qilganlaridan keyin O'rta Osiyoga yurish boshladilar? 1.Misr 2.Hindiston 3.Suriya 4.Iroq 5.Eron 6.Kichik Osiyo 7.Falastin
☑ 1,3,4,5,7
7. 651-yilda bo’lib o’tgan voqeani aniqlang.
☑ Marv shahri arablar tomonidan egallandi
8. Arablarning Movaraunnahrga yurishlari davrida Xuroson markazi qayer bo’lgan?
☑ Marv
9. Arablar 667-yilda Movaraunnahrning qaysi hududiga yurish qildilar?
☑ Chag’aniyon
10. Arablar 654-yilda qaysi hududlarga hujum qilgan edilar?
☑ Maymurg'

Shuhratbek.uz

11. Qutayba ibn Muslim Movaraunnahrga yurishni qaysi hududlarni bosib olishdan boshlagan edi?
☑ Balx atroflarini
12. Kimning ma'lumotiga ko'ra, Ubaydulloh ibn Ziyod 673 yilda Buxoro muzofotiga bostirib kirgan?
☑ Narshaxiy
13. Bir lak bu…..
☑ 100 ming
14. 673 yilda Ubaydulloh ibn Ziyod o'z yurishlari davrida qaysi shaharlarni egallaydi?
☑ h.j.t
15. 673-yilda Buxoroga bostirib kirgan Ubaydulloh ibn Ziyod Marvga qanday o'ljalar bilan qaytdi?
☑ to'rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlar
16. Arablarning Movaraunnahrga qilgan birinchi yurishlari to'g'risida aytilgan fikrlardan qay biri noto'g'ri?
☑ Dastlabki yurishlarda arablar bosib olish maqsadini ko'zlaganlar
17. Qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlangan sanani aniqlang.
☑ 704 yil
18. 707 yilda Qutayba…..
☑ katta qo'shin bilan Poykandni qamalga oladi
19. Qutayba bosqini davrida Buxorxudotlar hokimiyati hududi nechta yirik qo'rg'on va shaharchalardan tashkil topgan edi?
☑ 12 ta
20. 710 yilda Qutayba qaysi hududlarni bosib olgan edi?
☑ Kesh va Naxshab
21. Qaysi voqeadan keyin Xorazm diyori shimoliy va janubiy qismlarga bo'linib ketgan edi?
☑ Qutayba fathidan keyin
22. 711 yilda Qutaybadan yordam so'ragan va keyinchalik arablar bojdoriga aylanib qolgan Xorazm hukmdorini aniqlang.
☑ Chag'on
23. Qutayba Samarqandga yurish qilgan paytida Sug'd hukmdori kim edi?
☑ Gurak
24. Buxorxudot hukmdori Tug'shoda hukmronligi yillarini aniqlang.
☑ 692-724-yillar
25. G'urak hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 710-737-yillar
26. Qutayba va G'urak o'rtasida imzolangan shartnoma shartlariga quyidagilardan qay biri kirmaydi?
☑ yiliga 300 ming dirham hisobidan boj to'lash
27. 713-yilda Qutayba qayerni bosib olish uchun qo'shin jo'natgan edi?
☑ Choch viloyatiga
28. Qutayba ibn Muslim bosib olingan hududlarga arablardan kimlarni tayinlagan?
☑ amirlar
29. Arablar tomonidan Samarqand egallangan sanani aniqlang.
☑ 712-yil
30. Qutaybaga taslim bo'lgan Gurak ikkala o'rtada shartnoma imzolanganidan keyin qayerga hukmdor etib tayinlanadi?
☑ Samarqand, Kesh va Naxshab
31. Qutayba o'zining yurishlari natijasida qayergacha kirib borgan?
☑ Koshg'ar
32. Arablar buyrug'iga ko'ra qaysi shaharlarning teng yarmi yangi ko'chib kelgan arablarga va ular bilan kelgan ajamlarga bo'shatib berilgan edi?
☑ hamma javob to'g'ri
33. Kimga qarshi chiqqani uchun Qutayba o'z askarlari tomonidan o'ldirilgan edi?

Shuhratbek.uz

☑ Sulaymon
34. 634-644 yillarda xalifalik qilgan shaxsni aniqlang.
☑ Umar
35. Manbalarda yozilishicha, arablar bosqinining birinchi bosqichida kimlar Xorazmga yurish uyushtirgan edilar?
☑ Umayya ibn Abdulloh va Salim ibn Ziyod
36. Movaraunnahrga bo’lgan ilk hujumlar qayerdan va qachon boshlangan?
☑ 654 yil, Maymurg’
37. Movaraunnahrga bo’lgan yurishning ikkinchi davri qayerlarni bosib olishdan boshlanadi?
☑ Balx viloyati atroflari
38. Xalifa Muoviya hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 661-680 yillar
39. Qutaybaga qayerning hukmdori jangsiz taslim bo'lgan edi?
☑ Chag'oniyon
40. Poykand qamali necha kun davom etadi?
☑ 50 kun
41. Tarixchi olim Narshaxiyning yashab o'tgan yillarini aniqlang.
☑ 899-959-yillar
42. Arablar bosqini voqealari yozib qoldirilan "Buxoro tarixi" asarining muallifi kim?
☑ Narshaxiy
43. Arab xalifaligida alohida qo'shin qo'mondonlari va viloyat noiblari qanday nomlangan?
☑ amir

## 009-10-Xalifalikka qarshi xalq harakatlari (17)

### Savollar va javobi

1. Qaysi hudud hukmdorlari arablar tomonidan katta miqdorda boj-tovonlar to'lashga majbur bo'lgan edi?
☑ Sug'd, Buxoro, Poykand
2. Qaysi shaharlarda shahriston va undagi xonadonlarning teng yarmi arablar va ular bilan kelgan ajamliklarga bo'lib berilgan edi?
☑ hamma javob to'g'ri
3. Islomni qabul qilgan mahalliy aholi dastlabki yillarda qaysi soliqdan ozod etilgan edi?
☑ xiroj va jizya
4. Arablar tomonidan o’rnatilgan va idora ishlari uchun olinadigan soliq turini aniqlang.
☑ ushr
5. Arablar tomonidan joriy qilingan qaysi soliq 1/40 miqdorda olingan?
☑ zakot
6. Ushr daromaddan qanday miqdorda olingan?
☑ 1/10 miqdorda
7. VIII asr boshlarida bosib olingan xalqlar bilan kelishish siyosatini yuritishga intilgan xalifani aniqlang.
☑ Umar ibn Abdulaziz
8. Xalifa Umar ibn Abdulaziz hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 717-719 yillar
9. 720 yilda qo'zg'olon ko'targan Divashtich qayerning hokimi edi?
☑ Panjikent
10. Qonun kuchiga teng buyruq qanday nomlanadi?
☑ farmon
11. 721 yilda...
☑ Said Xaroshiy Xuroson noibi etib tayinlandi

Shuhratbek.uz

12. Abu Muslim qachon Xurosonga keldi?
☑ 746 yilda
13. 720 yilda Sug'dda ko'tarilgan qo'zg'olonga yordam berish uchun qayerdan turk lashkari kelgan edi?
☑ Yettisuv
14. Mahalliy aholi bilan yaqinlashishga intilib, hatto Buxorxudotning qiziga uylangan Xuroson noibi kim edi?
☑ Nasr ibn Sayyor
15. Xuroson noiblaridan qay biri arablar mavqeini mustahkamlash uchun moliya islohoti o'tkazgan edi?
☑ Nasr ibn Sayyor
16. Arab xalifaligida qaysi davrga kelib, abbosiylar va umaviylar o'rtasida toju-taxt uchun kurash kuchaydi?
☑ VIII asrning 40- yillarida
17. Abbosiylar umaviylarga qarshi kurashda ularga qanday ayb qo'ygan edilar?
☑ payg'ambar avlodlarini qirib tashlash

## 011-Abbosiylar davri_Abu_Muslim qo'zg'oloni (20)

### Savollar va javobi

1. Umaviy xalifa Marvon II davrida aholining umumiy noroziligiga nima sabab bo'lgan edi?
☑ ikkita javob to'g'ri
2. So'nggi umaviy xalifasi Marvon II qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
☑ 744-750-yillarda
3. Abu Muslim qaysi shahardan bo'lgan?
☑ Kufadan
4. Abu Muslim qachon Xurosonga keldi?
☑ 746-yilda
5. Abu Muslim qachon aholini umaviylarga qarshi kurashga da'vat etdi?
☑ 747-yilda
6. Abu Muslim o'ziga kelib qo'shilgan kishilarga qanday maosh to'lagan?
☑ avval 3, keyin 5 dirhamdan
7. Abu Muslimning g'oyalariga xayrxoh bo'lgan aholi dastlab qayerga to'planadi?
☑ Moxuvon qal'asi
8. Abu Muslim tomonidan qullar boshlig'i etib tayinlangan shaxsni aniqlang.
☑ Dovud
9. Abu Muslim qullarga qayerdan joy ajratib bergan edi?
☑ Shavval qishlog'idan
10. VIII asrning o'rtalarida qaysi davlat qo'shinlari Movarounnahrdagi ichki ziddiyatdan foydalanib, Turkistonga bostirib kirgan edi?
☑ Xitoy
11. Abbosiylardan bo'lgan birinchi xalifani aniqlang.
☑ Abul Abbos Saffoh
12. Abbosiylar hukmronligiga qarshi ilk qo'zg'olon qachon va qayerda bo'lib o'tgan edi?
☑ 750 yil, Buxoroda
13. 751 yilda xitoyliklarni Talos vodiysidan quvib yuborgan shaxsni aniqlang.
☑ Ziyod ibn Solih
14. Abbosiylarning ramzi bo'lgan rangni aniqlang.
☑ qora
15. "Shohizinda" atamasining ma'nosini aniqlang.
☑ Tirik shoh

Shuhratbek.uz

16. Umaviylardan bo'lgan so'nggi xalifani aniqlang.
☑ Marvon II
17. Ziyod ibn Solih boshchiligidagi qo'shin kimlardan tashkil topgan edi?
☑ arab, sug'd va turklar
18. Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon nechanchi yillarda bo'lib o'tgan?
☑ 747-749-yillarda
19. Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon qayerlarda bo'lib o'tgan
☑ Xuroson va Movarounnahrda
20. Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olonda qaysi xalifalik sulolasi hokimiyatdan ag'darildi?
☑ umaviylar

## 012-Oq kiyimlilar qo'zg'oloni (21)

### Savollar va javobi

1. Yoshligida kudungarlik (matolarga ohor beruvchi) bilan shug'ullangan, keyin sarxanglik lavozimlarida ishlagan shaxsni aniqlang.
☑ Hoshim ibn Hakim
2. Abbosiylar sulolasi Arab xalifaligini boshqargan yillarni aniqlang.
☑ 750-1258 yillar
3. Muqannaning targ'iboti Movaraunnahrning qaysi viloyatlarida yaxshi samara beradi?
☑ Naxshab va Kesh
4. Muqannaning qarorgohini aniqlang.
☑ Som qal'asi
5. Muqanna qo'zg'oloni bo'lib o'tgan yillarni aniqlang.
☑ 769-783 yillar
6. Dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi tarafdori bo'lgan Eronning bosh kohini kim edi?
☑ Mazdak ibn Hamdodon
7. Rofe ibn Lays qo'zg'oloni qaysi shahardan boshlangan edi?
☑ Samarqanddan
8. 776 yildan boshlab Muqanna qo'zg'oloni qayerda kuchayib ketadi?
☑ Buxoro vohasi
9. "Oq kiyimliklar" va turkiy qabilalar qaysi shaharda arablarga qarshi ikki yil jang qilgan edilar?
☑ Samarqandda
10. Xalifa Mansur tomonidan "Oq kiyimlilar"ga qarshi yuborilgan shaxsni aniqlang.
☑ Jabroil ibn Yahyo
11. 776 yilda qo'zg'olonchilarning asosiy tayanchi bo'lgan va to'rt oylik jangdan keyin taslim bo'lgan shaharni toping.
☑ Narshax
12. Oq kiyimlilar qo'zg'oloni yengilishining eng asosiy sababi nima edi?
☑ qo'zg'olonchilarning uyushmaganligi
13. Rofe ibn Lays qo'zg'olon ko'targan yili (806 yil) Xuroson noibi kim edi?
☑ Ma'mun
14. Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirish uchun Xuroson noibi Ma'mun kimlardan yordam so'ragan edi?
☑ Somonxudotning nabiralari
15. Mazdak Ibn Hamdodon yashab o'tgan yillarni aniqlang?
☑ 470-529-yillar
16. Kichik lashkarboshi ma'nosini beruvchi atamani aniqlang.
☑ sarhang
17. Muqanna qo'zg'oloni qaysi hududlarga ham ta'sirini o'tkazgan edi?

Shuhratbek.uz

☑ Shosh va Eloq
18. Qo'zg'olonchilar qaysi shahar yaqinida yordamga kelayotgan arab qo'shinlarini tor-mor etdilar?
☑ Termizda
19. "Oq kiyimliklar" qo'zg'olonining so'nggi bosqichi qayerda bo'lib o'tgan edi?
☑ Keshda
20. Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo’zg’olon Samarqanddan boshlanib, qaysi hududlarga yoyilgan? 1.Shosh 2.Farg'ona 3.Buxoro 4.Naxshab 5.Xorazm 6.Eloq
☑ 1, 2, 3, 4, 5
21. Quyidagi qaysi qo’zg’olon boshlig'i o'z xohishi bilan qo'zg’olonni to'xtatgan edi?
☑ Rofe ibn Lays

## 013-Xalifalikning zaiflashuvi va mustaqil davlatlarning shakllanishi (37)

### Savollar va javobi

1. Qachon Arab xalifaligi o'gir siyosiy tanglikka uchragan edi?
☑ VIII asr oxiri-IX asr boshlari
2. Qarluqlar dastlab qaysi hududlarda yashashgan?
☑ Oltoyning g'arbida, keyin Irtish daryosining o'rta oqimida
3. Ilk o’rta asrlarda tashkil topgan Qorluqlar davlatining poytaxtini aniqlang.
☑ Suyob
4. Qorluqlar davlati qachon tashkil topdi?
☑ VIII asr o’rtalarida
5. Qorluqlar davlati qayerda tashkil topdi?
☑ Yettisuvda
6. Qorluqlar davlatining hukmdorlari nima deb atalgan ?
☑ yabg’u yoki jabg’u
7. Qarluqlar dastlab qachon qaysi qabilalar tarkibiga kirgan?
☑ 6-7-asrlarda Turk xoqonligi tarkibiga kirgan
8. Qaysi davrga kelib qarluqlarning ko'pchilik qismi musulmon bo'lgan edi?
☑ X asr o'rtalari
9. Qarluqlar davlati yag'molar vohasi va Sharqiy Turkiston bilan qaysi tarafdan chegaradosh bo'lgan?
☑ janubdan
10. Qarluqlar davlatida poytaxtdan tashqari yana qanday shahar va qishloqlar bor edi?
☑ hamma javob to'g'ri
11. Qarluqlar davlatidan chetga asosan nimalar chiqarilgan?
☑ jun va junli mahsulotlar
12. O’g’uzlar davlatiga asos solingan davrni aniqlang.
☑ IX asr oxiri-X asr boshlari
13. O’guzlar davlatining poytaxtini aniqlang.
☑ Yangikent
14. X asrning boshida o’g’uzlar kimlardan zarbaga uchrab ikkiga bo’linib ketadilar?
☑ qipchoqlar
15. Qorluqlar hozirgi davrda mavjud bo’lgan xalqlardan kimlarning etnogeneziga ta’sir qilganlar?
☑ tojik va o’zbek
16. O'guzlar hozirgi davrda mavjud bo’lgan xalqlardan kimlarning etnogeneziga ta’sir qilganlar?
☑ turkman va ozarbayjon
17. Xalifa Xorun ar Rashid hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 786-809 yillar
18. Xalifa Xorun ar-Rashid o’limidan keyin kimlar o’rtasida xalifalik taxti uchun kurash ketdi?
☑ Amin va Ma’mun o’rtasida

Shuhratbek.uz

19. Ma'mun va Amin o'rtasida taxt uchun kurash qavhon bo'lib o'tadi?
☑ 809-813-yillarda
20. Ma’mun va uning yaqin safdoshlari tomonidan Bag’dod shahri egallanib, Ma’mun xalifalik taxtiga o’tirgan sanani aniqlang.
☑ 813 yil
21. Ma'munga Hirot zodogonidan kim yordam beradi?
☑ Tohir ibn Husayn
22. 821 yilda Ma’mun tomonidan Xuroson noibi etib tayinlangan shaxsni aniqlang.
☑ Tohir ibn Husayn
23. Ma’mun Movaraunnahr zadogonlaridan somonxudotning nabiralaridan Yahyoga qaysi hududlarni bergan edi?
☑ Shosh va Ustrushona
24. Ma’mun Movaraunnahr zadogonlaridan somonxudotning nabiralaridan Ahmadga qaysi hududlarni bergan edi?
☑ Farg’ona
25. Ma’mun Movaraunnahr zadogonlaridan somonxudotning nabiralaridan Nuhga qaysi hududlarni bergan edi?
☑ Samarqand
26. Ma’mun Movaraunnahr zadogonlaridan somonxudotning nabiralaridan Ilyosga qaysi hududlarni bergan edi?
☑ Hirot
27. Davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida Tohir ibn Husayn xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlagan yilni aniqlang.
☑ 822 yil
28. Tohiriylardan Abul Abbos Abdulloh noiblik yillarini belgilang.
☑ 830-844 yillar
29. Haq din uchun kurashuvchi jangchi qanday nomlanadi?
☑ g'oziy
30. Ilk o'rta asrlarda miskar hunarmand qanday nomlangan?
☑ safforiy
31. Abul Abbos davrida Tohiriylar davlatining poytaxti Marvdan qaysi shaharga ko’chirilgan edi?
☑ Nishopur
32. IX asr o’rtalarida tohiriylar va somoniylar o’rtasidagi munosabatlar haqidagi fikrlardan qay biri noto’g’ri?
☑ Tohiriylar va somoniylar bir-biridan mustaqil davlat boshqarganlar
33. Safforiylar kimlar?
☑ miskar hunarmandlar
34. 873 yilda….
☑ ikkita javob to'g'ri
35. Safforiylar etakchilarini aniqlang.
☑ Yaqub va Amr ibn Lays
36. Tohiriylar davlati nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?
☑ 821-873-yillarda
37. Safforiylar davlati nechanchi yillarda mavzud bo'lgan?
☑ 873-900-yillar

## 014-Somoniylar (28)

### Savollar va javobi

1. IX asrda Somoniylardan hukmronlik qilgan shaxslarning ketma-ketligini aniqlang.
☑ Nuh-Ahmad-Nasr-Ismoil

Shuhratbek.uz

2. Somoniylardan bo'lgan Ahmad qachon vafot etgan?
☑ 865-yilda
3. Ahmad vafotidan keyin Nasr qaysi shaharni markazga aylantirdi?
☑ Samarqand
4. Somoniylardan birinchi bo’lib kumush tanga zarb qilgan shaxsni aniqlang.
☑ Nasr ibn Ahmad
5. Ismoil Somoniy butun Movaraunnahrning hukmdorigan aylangan sanani aniqlang.
☑ 888 yil
6. Ismoil Somoniy 893 yil qaysi shaharni bosib olib dashtliklarga qattiq zarba bergan edi?
☑ Taroz
7. Tarixda "Amiri moziy" nomi bilan qolgan hukmdor shaxsni aniqlang.
☑ Ismoil Somoniy
8. Ismoil Somoniy va Amr ibn Laysni bir-biriga gij-gijlagan arab xalifasini aniqlang.
☑ Mu’tazid
9. Xalifa Mu'tazid hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 892-902 yillar
10. Somoniylar va safforiylar o’rtasida hal qiluvchi jang bo’lib o’tgan sanani aniqlang.
☑ 900 yil
11. Somoniylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilganlar?
☑ 865-999-yillar
12. Somoniylar davlati ravnaq topgan davrda unga qaysi hududlar kirgan? 1.Xuroson 2.Movaraunnahr 3.Sharqiy Turkiston 4.Shimoliy va Sharqiy Eron 5.Hindistonning bir qismi 6.Yettisuv
☑ 1, 2, 4
13. Ismoil Somoniy Movaraunnahr va Xuroson poytaxti etib qayerni belgilaydi?
☑ Buxoroni
14. Somoniylar davlat boshqaruvi necha qismdan tashkil topgan edi?
☑ 2 ta, dargoh va devon
15. Somoniylar davlatida davlat hujjatlari va elchilik aloqalari bilan qaysi vazirlik shug’ullangan?
☑ amid-ul mulk devoni
16. Somoniylar davlatida moliya ishlarini qaysi devon boshqargan?
☑ mustovfiy devoni
17. Somoniylar davlatida harbiy ishlar vaziri nima deb atalgan?
☑ sohibi shurat
18. Qaysi somoniy hukmdor davrida devonlar uchun maxsus bino qurilgan edi?
☑ Nasr II
19. Somoniy Nasr II hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 914-943 yillar
20. Movarounnahrda ilk ilmgoh - madrasa qaysi shaharda qurilgan edi?
☑ Buxoroda
21. X asrda Buxoroda bunyod etilgan madrasa qanday nomlangan?
☑ Farjak madrasasi
22. Movaraunnahr xalqi Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo’lgan davrni aniqlang.
☑ IX asr oxirida
23. Shayx-ul islomlar oldin qanday nom bilan atalgan?
☑ ustod
24. Shayxulislomdan keyin turadigan islom peshvosini aniqlang.
☑ xatib
25. Somoniy hukmdorlar qay biri birinchi bo’lib muntazam armiya tuzadi?
☑ Ismoil
26. Somoniylar saroyidagi oliy unvonga ega bo’lgan va dargoh ishlarini boshqargan shaxsni aniqlang.

Shuhratbek.uz

☑ hojibi-buzruk
27. Somoniylar saroyida qo'shinda yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar qanday unvon olganlar?
☑ hojib
28. Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi nechanchi asrga taalluqli?
☑ X asr

## 015-16-Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot Gaznaviylar davlati (55)

### Savollar va javobi

1. Somoniylar davrida qaysi shaharda yuksak navli qog'oz ishlab chiqarilar edi?
☑ Samarqand
2. Somoniylar davrida qaysi voha ko'nchilik va charm mollari bilan mashhur bo'lgan?
☑ Shosh
3. Somoniylar davrida qaysi hududda qayiqsozlik taraqqiy qildi?
☑ Xorazm
4. X-XI asrlarda qaysi viloyat o'zining kumush va qo'rg'oshin konlari va kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi?
☑ Eloq
5. Sharqda mashxur "zandanachi" mallarang bo'zi qayerda ishlab chiqarilgan?
☑ Buxoro
6. Sharqda mashhur bo'lgan vadoriy matosi qayerda ishlab chiqarilar edi?
☑ Samarqand
7. X-XI asrlardayoq Movaraunnahrning qaysi viloyatidan toshko'mir va neft qazib olingan?
☑ Farg'ona
8. Somoniylar davrida ichki savdoda asosan qanday tangalar ishlatilgan?
☑ ikkita javob to'g'ri
9. Somoniylar davrida pul almashtirib beradigan shaxslarni qanday nomlashgan?
☑ sarroflar
10. Somoniylar davlatida qaysi yo'l orqali Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonga Movarounnahrning qishloq va shaharlaridan kerakli mahsulotlar etkazib berilgan?
☑ Shimoliy yo'l orqali
11. VII-IX asrlarda Xitoy bilan savdoda muhim o'rin tutgan mahsulotlarni aniqlang.
☑ ot, choy, ipak mato, tuz
12. Xitoyda har bir otning bahosi choy bahosida qancha kg choyga teng bo'lgan?
☑ 56 kg
13. Xitoyda har bir otning bahosi necha o'ram ipakka teng bo'lgan edi?
☑ 50 o'ram
14. Xitoy o'lchov birliklaridan "jin" necha gramm bo'lgan?
☑ 600 g
15. VII-VIII asrlarda asosiy import mahsulotlaridan biriga aylangan mahsulotni ayting.
☑ choy
16. O'rta Osiyoga qaysi hududdan qimmatbaho mo'ynalar, shamlar va cho'qqi qalpoqlar keltirilgan edi?
☑ Bulg'or va Xazardan
17. Somoniylar davlatining tashqi savdosida asosan qaysi tanga ishlatilgan?
☑ ismoiliy
18. Somoniylar davlatida kumush tangalar quyidagi qaysi shaharlardagi zarbxonalarda so'qilgan? 1.Marv 2.Samarqand 3.Gurganj 4.Balx 5.Poykand 6.Buxoro 7.Shosh
☑ 1,2,6,7
19. Somoniylar davlatida necha xil yer egaligi mavjud bo'lgan?
☑ 5 xil

Shuhratbek.uz

20. Somoniylar davrida davlat yerlari nima deb yuritilgan?
☑ mulki sultoniy
21. Somoniylar davrida mulki xos yerlari kimlarga tegishli bo'lgan?
☑ oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar
22. Somoniylar davrida mulki xos yerlaridan qanday soliq undirilgan edi?
☑ ushr
23. Qachondan boshlab yirik mansabdorlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun yerlar in'om qilina boshlangan?
☑ X asrdan
24. Somoniylar davrida iqto yer egaligi to'g'risida berilgan fikrlardan qay biri noto'g'ri?
☑ iqto dastlab merosiy mulk qilib berilgan
25. Iqto yer egaligi dastlab kimlarga berilgan?
☑ amirzodalar va yirik mansabdorlarga
26. Qishloq jamoalari tasarrufida bo'lgan jamoa yerlari qanday yerlar bo'lgan?
☑ lalmikor va tog'oldi yerlari
27. IX-X asrlarda yerni ijaraga olib ishlovchilar qanday nomlanar edi?
☑ barzikorlar
28. Agar qo'shchining o'z qo'shi va urug'liki bo'lsa qancha miqdorda hosildan ulushga ega bo'lgan?
☑ 1/3, 1/4 yoki 1/5
29. Agar qo'shchining o'z qo'shi va urug'liki bo'lmasa qancha miqdorda hosildan ulushga ega bo'lgan?
☑ 1/10 yoki 1/12
30. Buxoroda aholidan ikki marta soliq undirib olingan yilni aniqlang.
☑ 942 yil
31. 947 yilda Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim kimning yordamida taxtni egallab oladi?
☑ Abu Ali Chag'oniy
32. Somoniy hukmdorlardan Nuh II hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 976-997 yillar
33. Somoniy hukmdorlardan Nuh hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 943-954 yillar
34. 952 yilda kim avval Chag'oniyonga, keyinchalik Xurosonga hokim etib tayinlangan edi?
☑ Abu Ali Chag'oniy
35. 961 yilda qaysi hududda askarlarning g'alayoni ko'tarilgan edi?
☑ Buxoroda
36. G'aznaviylar davlatining asoschisi kim hisoblanadi?
☑ Alptegin
37. G'aznaviylardan qaysi hukmdor davrida ularning nufuzi somoniylar tomonidan e'tirof etilgan edi?
☑ Sabuqtakin
38. G'aznaviylar davlati sharqda qaysi hududlarga yoyilgan edi?
☑ Shimoliy Hindistondan Janubiy Balujistongacha
39. G'aznaviy hukmdorlardan Sabuqtakin hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 977-997 yillar
40. G'aznaviylar davlati kimning davrida Sharqning yirik davlatlaridan biriga aylangan edi?
☑ Mahmud G'aznaviy
41. Mahmud G'aznaviy qachon Xorazmni bo'ysundirgan edi?
☑ 1017 yilda
42. G'aznaviy hukmdorlardan Ma'sud G'aznaviy hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 1030-1041 yillar
43. G'aznaviylar davlati qachon barham topdi?
☑ 1186 yil
44. G'aznaviylar davlatida shahar hokimi nima deb atalgan?

Shuhratbek.uz

☑ rais
45. G'aznaviy davlatida viloyat hukmdori qanday nomlangan edi?
☑ voliy
46. G'aznaviy davlatida viloyat boshqaruv ishlari kim tomonidan olib borilgan edi?
☑ amid
47. G'aznaviy davlatida shahar boshqaruv ishlari kim tomonidan amalga oshirilar edi?
☑ kutvol
48. G'aznaviy davlatida bosh vazir tizimida qanday devonlar faoliyat yuritgan edi? 1.harbiy 2.moliya 3.elchilik va rasmiy tadbirlar 4.xabar-pochta 5.davlat mulklari
☑ 1,2,3,4
49. G'aznaviy davlatida bosh qo'mondon qanday atalar edi?
☑ sipohsolor
50. G'aznaviylar davlatida harbiy qismlar boshlig'i nima deb atalgan?
☑ sarxang
51. G'aznaviylar davlatida lashkarboshi nima deb atalgan?
☑ solor
52. Quyidagi o'rta asr davlatida hattoki daryo va dengiz floti ham mavjud bo'lgan.Gap qaysi davlat haqida ketmoqda?
☑ G'aznaviylar davlatida
53. G'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviy o'z ona-tili bilan bir qatorda yana qanday tillarni bilgan?
☑ fors, arab va pahlaviy
54. Tarixchi Bayhaqiyning sulton Ma'sudga bag'ishlab yozgan asarini aniqlang.
☑ “Tarixi Mas’udiy”
55. Beruniyning Sulton Mas’udga bag’ishlangan asarini aniqlang.
☑ “Qonuni Mas’udiy”

## 017-18-Qoraxoniylar davlati (35)

### Savollar va javobi

1. Qachon qarluqlar Issiqko'lning janubiy sohili va Qoshg'arda yashagan yag'mo qabilasi, chigil va o'g'uz qabilasi bilan birlashgan edilar?
☑ X asr o'rtalarida
2. Xoqoniya nechanchi asrlarda rivoj topib kuchaygan edi?
☑ XI-XII asrlarda
3. Qoraxoniylar davlatida qaysi so'zlar oliy darajali hukmdor degan ma'nolarni bildirgan?
☑ hamma javob to'g'ri
4. Qoraxoniylar davlati tarkibida qaysi qabilalar mavjud bo’lgan?
☑ yag’mo, chigil, qarluq
5. Buyuklik yoki ulug’lik qadimgi turkiy xalqlarda qanday so’z bilan ifodalangan?
☑ qora
6. 992 yilda qoraxoniylar hukmdori Movarounnahrga yurish boshlaydi.Ushbu hukmdor ismini aniqlang.
☑ Xorun Bug'roxon
7. 992 yilda qoraxoniylar Buxoroni egallashganida somoniy Nuh ibn Mansur ularga qarshi kurashish uchun kimdan yordam so’raydi?
☑ Sobuqtegin
8. Nechanchi yilda somoniylar davlati qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida bo'lib olinadi?
☑ 996 yilda
9. Somoniylar davlati X asrda qaysi davlatlar o'rtasida bo'lib olingan edi?
☑ g'aznaviylar va qoraxoniylar

Shuhratbek.uz

10. Somoniylar Movarounnahrdagi hukmronligi barham topgan sanani aniqlang.
☑ 999 yil
11. Somoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligi kimning Buxoroni egallashi bilan barham topgan edi?
☑ Nasr Eloqxon
12. Somoniylar davlatining asosiy qismi g'aznaviylar va qoraxoniylar tomonidan bo'lib olingan yilni aniqlang.
☑ 996 yil
13. Qoraxoniylar nechanchi yillarda Xurosonga ikki marta hujum qilgan edilar?
☑ 1006 va 1008 yillarda
14. Qoraxoniylar Xurosonga yurish qilganlarida kim ularga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan edi?
☑ Mahmud G'aznaviy
15. XI asr boshlarida g'aznaviylar va kimlar o'rtasida hudud uchun kurash boshlanadi?
☑ saljuqiylar
16. 1038 yilda qoraxoniylarning mahalliy hukmdori Ibrohim Bo'ritakin g'aznaviylardan tortib olgan hududlarni aniqlang.
☑ Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyon
17. Sharqiy qoraxoniylar davlatining poytaxtini aniqlang.
☑ Bolasog'un
18. Ibrohim Bo'ritegin 1038 yilda Amudaryo bo'ylaridagi viloyatlarni qo'shib olganidan keyin qanday unvon olgan edi?
☑ bug'roxon
19. Qoraxoniylar davlatni……va……ga bo'lib idora qilganlar?
☑ el-yurt va viloyatlar
20. Qoraxoniylar eloqxonlari orasida eng katta o'bro'ga ega eloqxon kim bo'lgan?
☑ Movarounnahr
21. Qoraxoniylar davlatni boshqarishda kimlarning boshqaruv tizimidan foydalanadilar?
☑ somoniylar
22. Qoraxoniylar davlatida vaqf mulklarining boshqaruvchisi qanday nomlangan edi?
☑ sadr
23. Qoraxoniylar davlatida Movarounnahr eloqxoni qaysi shaharda taxtda o'tirgan?
☑ Samarqand
24. O'rta Osiyoda qaysi sulola davrida musulmon ruhoniylarining obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tarilgan?
☑ qoraxoniylar
25. Qaysi davrga kelib "dehqon" atamasi o'zining qishloq hokimi degan ma'nosini yo'qotdi?
☑ XI-XII asrlarda
26. Qaysi davrdan boshlab yerdan foydalanishning iqto tartibi keng tarqangan?
☑ XI asrdan
27. Qoraxoniylar qachondan boshlab qoraxitoylar xujumiga uchradilar?
☑ XII asrning 30-yillaridan
28. Qoraxitoylar qaysi xalqqa mansub qabila hisoblangan?
☑ mo'g'ul
29. Qoraxitoylar davlatining poytaxtini aniqlang.
☑ Bolasog'un
30. Qoraxitoylar podshohi qanday nomda atalgan?
☑ go'rxon
31. Qoraxitoylar va qoraxoniylar o'rtasida jang bo'lib o'tgan sanalarni aniqlang.
☑ 1137 yil, 1141 yil
32. 1137 yilda qoraxitoylar va qoraxoniylar o'rtasida jang qayerda bo'lib o'tgan edi?
☑ Xo'jand shahri yaqinida

Shuhratbek.uz

33. Qaysi yilda bo'lib o'tgan jangdan keyin qoraxoniylar davlati tugatilgan edi?
☑ 1141 yilda
34. Buxoro shahridagi Minorai Kalon nechanchi asrga taalluqli inshoot hisoblanadi?
☑ XII asrga
35. Qoraxoniylar davlatida qaysi shaharlarda tangalar zarb qiladigan zarbxonalar bo'lgan?
1.Bolosog'un 2.Taroz 3.O"zgan 4.Toshkent 5.Buxoro 6.Samarqand 7.Urumchi 8.Urganch
☑ 1, 2, 3, 4, 5, 6

## 019-Xorazm davlati va uning yuksalishi (32)

### Savollar va javobi

1. IX-X asrlarda Xorazmshohlar davlati qaysi sulolalar qo'l ostidagi davlat tarkibiga kirgan edi?
☑ hamma javob to'g'ri
2. X asr oxiriga borganda Xorazmda shaharlar soni qanchaga yetgan edi?
☑ 32 ta
3. Xorazmda VIII asr boshlarida qancha shahar bo'lgan?
☑ uchta
4. Xorazmda chet el bilan savdo aloqalarini kengaytirishda qaysi shahar ayniqsa muhim o'rin tutgan?
☑ Gurganch
5. Qachon Gurganch miri M'amun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini ham birlashtirgan edi?
☑ 995 yilda
6. 995 yildan boshlab Xorazmning poytaxtiga aylangan shaharni aniqlang.
☑ Gurganch
7. Xorazmda ma'muniylar davlatida davlatining eng yuqori lavozimlaridan biri bo'lgan vazirlik qanday unvonga ega bo'lgan?
☑ xo'jayi buzruk
8. Xorazmdagi markaziy boshqarma - devonxonda qanday mahkamalar bo'lgan?
☑ ziroat, savdo-tijorat, moliya, soliq va harbiy
9. Xorazmda ma'muniylar davlatida kim harbiy safarlar vaqtida hukmdor nomidan davlatni boshqarar edi?
☑ xo'jayi buzruk
10. Xorazm davlati Saljuqiylarga qaram bo'lib qolgan sanani aniqlang.
☑ 1040 yil
11. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh Xorazmga kimni noib qilib tayinlagan edi?
☑ Anushteginni
12. Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad noiblik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 1097-1127 yillarda
13. Garchi u "xorazmshoh" unvonini qayta tiklab, bunday jarangdor nom bilan atalsa-da, saljuqiylar davlatining sodiq noibi sifatida qolgan edi.Gap qaysi xorazmshoh haqida ketmoqda?
☑ Qutbiddin Muhammad
14. Xorazmning saljuqiylar davlatidan mustaqilligi kimning nomi bilan bog'liq?
☑ Otsiz
15. Xorazmshoh Otsiz dastlab qaysi qabilalarni o'ziga bo'ysundirgan edi?
☑ qipchoqlar va turkmanlarni
16. Xorazm hukmdori Otsiz Xorazmga qaysi hududlarni qo'shib olgan edi?
☑ Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq oroli
17. Xorazmshoh Otsiz noiblik qilgan yillarni aniqlang.
☑ 1127-1156 yillarda
18. Xorazmshoh Elarslon noiblik qilgan yillarni aniqlang.

Shuhratbek.uz

☑ 1156-1172 yillarda
19. Xorazmshoh Elarslondan keyin bir yil hukmdorlik qilgan shaxsni aniqlang.
☑ Sultonshoh Mahmud
20. 1153 yilda Sulton Sanjarga qarshi kimlar qo'zg'olon ko'tardilar?
☑ o'g'uzlar
21. Saljuqiylar davlatidan dastlab qaysi hududlar ajralib chiqqan edi?
☑ Kichik Osiyo va Kermon
22. Xorazm davlati kimning davrida ayniqsa juda kengaygan edi?
☑ Takash
23. Xorazmshoh Takash 1187-1193 yillarda qaysi shaharlarni bosib olgan edi?
☑ hamma javob to'g'ri
24. Xorazmshoh Takash 1194 yilda saljuqiylar hukmdori kimga qaqshatqich zarba bergan edi?
☑ To'g'rul
25. Xorazmshoh Takash 1194 yilda qaysi hududni bosib oladi?
☑ Eron
26. 1200-1220 yillarda Xorazmshohlar davlatini boshqargan hukmdorni aniqlang.
☑ Alouddin Muhammad
27. 1206 yildan boshlab Movaraunnahrni qoraxitoylardan tozalashga kirishgan hukmdorni aniqlang.
☑ Alouddin Muhammad
28. Xorazmshoh Alouddin Muhammad qachon va qayerda qoraxitoylarni mag'lubiyatga uchratdi?
☑ 1210 yilda, Talosda
29. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar davlatining janubiy sharqiy hududlari qayerdan o'tgan edi?
☑ G'azna viloyatidan
30. Xorazmshohlar davlatiga qarshi 1210 yilda qaysi hududda qo'zg'olon bo'lib o'tgan edi?
☑ O'tror
31. Xorazmshohlar davlatiga qarshi 1212 yilda qaysi hududda qo'zg'olon bo'lib o'tgan edi?
☑ Samarqand
32. 1210-yilda qoraxitoylarni tor-mor etganidan keyin Xorazmga qaysi hududlar kirdi?
☑ Yettisuvgacha bo'lgan yerlar

## 020-O'rta Osiyolik mutafakkirlar (32)

### Savollar va javobi

1. IX asrda butun dunyoga mashhur "Bayt ul-hikmat" qaysi shaharda tashkil qilingan edi?
☑ Bag'dod
2. Arab xalifaligida qaysi shaharda astronomik kuzatishlar olib boradigan rasadxona mavjud edi?
☑ Bag'dod va Damashq
3. Arablarning "Bayt ul-hikmatida faoliyat yuritgan olimlar orasiga quyidagi shaxslardan qay biri kirmaydi?
☑ Abu Sahl Masihiy
4. Quyidagi olimlardan qay biri "Bayt ul-hikmat"da mudir sifatida faoliyat yuritgan?
☑ Muhammad ibn Muso al Xorazmiy
5. Al Xorazmiy qaysi asari bilan matematika tarixida birinchi bo'lib algebra asariga asos soldi?
☑ "Al-jabr val muqobala"
6. Al-Xorazmning geografiyaga oid asarini aniqlang.
☑ "Kitob surat ul arz"
7. Al-Xorazmiyning astronomiyaga oid asarini aniqlang.
☑ ikkita javob to'g'ri
8. Xalifa Ma'mun hukmronligi davrini aniqlang.
☑ 813-833 yillarda

Shuhratbek.uz

9. Al-Xorazmiy umuman olganda nechta asar yozib qoldirgan?
☑ 20 dan ortiq
10. Al-Xorazmiyning "Al-jabr" asari qayerda birinchi bor yevropa tiliga tarjima qilingan edi?
☑ Ispaniyada
11. Al Xorazmiyning “Aljabr” asari birinchi bo’lib qaysi Yevropa tiliga tarjima qilinadi?
☑ lotin
12. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg’oniy yashab o’tgan yillarni aniqlang.
☑ 797 -865 yillar
13. Zij- bu
☑ astronomik jadval
14. Al-Farg'oniy ilm-fanning qaysi sohalari bilan shug'ullangan edi? 1.matematika 2.geometriya 3.tarix 4.astronomiya 5.geografiya 6.huquqshunoslik
☑ 1, 4, 5,
15. Al-Farg'oniy qaysi shahardagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlashda ishtirok etgan edi?
☑ Damashq
16. 832-833 yillarda Al-Farg'oniy Suriyaning shimolidagi Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig'ida qanday ilmiy ishni amalga oshirgan edi?
☑ yer meridianining bir darajasini aniqlashda
17. Al-Farg’oniy qaysi daryoning suvini o’lchaydigan gidrometr yaratishda qatnashgan edi?
☑ Nil
18. Bizning davrimizgacha Al Farg’oniyning necha asari saqlanib kelgan?
☑ 8 ta
19. Al-Farg'oniyning qaysi asari XII asrdayoq lotin va ibroniy tillarga tarjima qilingan edi?
☑ "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum"
20. Kimning nomi XVI asrda Yevropada oy kraterlaridan biriga berilgan?
☑ Ahmad Al Farg’oniy
21. Ahmad al Farg’oniyning 1200 yilligi nechanchi yil nishonlangan edi?
☑ 1998 yil oktabrda
22. Imom al-Buxoriy yashagan yillarni aniqlang.
☑ 810-870 yillarda
23. Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi bo'lgan Abu Iso Muhammad at-Termiziy yashagan yillarni aniqlang.
☑ 824-894 yillarda
24. Imom al Buxoriyga bag’ishlanga yodgorlik majmuasi qayerda bunyod etilgan?
☑ Samarqand viloyatida
25. 1998 yil oktabr oyida Imom al Buxoriyning necha yilligi nishonlandi?
☑ 1225 yilligi
26. "Hadis" so'zining asl ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri berilganini aniqlang.
☑ rivoyat, naql
27. Imom al-Buxoriyning "Al Jome' al-sahih” necha jild bo'lib nashr qilingan?
☑ 4 jild
28. 870 yilda atoqli hadisshunos Imom al-Buxoriy vafot etdi.Ammo shu yili yana bir buyuk islomshunos olim dunyoga keldi.Mazkur allomani aniqlang.
☑ Abu Mansur al-Moturudiy
29. Abu Mansur al-Moturudiy fanning qaysi sohasiga katta hissa qo’shgan?
☑ kalom ilmi
30. Al Moturidiy qalamiga mansub asarlarni aniqlang.
☑ ikkita javob to'g'ri
31. Imom Al Moturudiyning 1130 yilligi qachon nishonlandi?
☑ 2000 yil noyabrda

Shuhratbek.uz

32. Imom al-Moturudiyga bag'ishlangan maqbara qaysi shaharda bunyod etilgan?
☑ Samarqand

## 021-Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (37)

### Savollar va javobi

1. Qaysi voqealardan keyin "Dorul hikma va maorif" faoliyati tugatilgan edi?
☑ Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi
2. Movarounnahrda qanday vaziyat madaniy hayot va ilm-fanning rivojlanishi uchun sharoit yaratgan edi?
☑ markazlashgan davlatning tashkil topishi
3. Quyidagi shaxslardan qay bir Ma'mun akademiyasining a'zosi hisoblanmaydi?
☑ Yahyo ibn Abu Mansur
4. "Dorul hikma va maorif" da faoliyat yuritgan Abu Sahl Masihiy yashagan yillarni aniqlang.
☑ 970-1011 yillarda
5. "Ma'mun akademiyasi"da faoliyat yuritgan Abulxayr ibn Hammor yashagan yillarni aniqlang.
☑ 991-1048 yillarda
6. "Ma'mun akademiyasi"da faoliyat yuritgan Abu Nasr ibn Iroq yashagan yillarni aniqlang.
☑ X asr - 1034 yillarda
7. Gurganjda "Dorul hikmat va Moarif" - Mamun akademiyasi shakllangan sanani aniqlang.
☑ 1004 yil
8. Gurganjda "Dorul hikmat va Moarif" - Mamun akademiyasining a'zolari 1017 yildan keyin qaysi shaharga olib ketilgan edilar?
☑ G'azna
